



YOSHLARNI OILAVIY XAYOTGA TAYYORLASHNING ASOSIY OMILLARI VA MUAMMOLARI

Qozoqova Intizor Ismayiljanovna

UrDU magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7441943>

ARTICLE INFO

Received: 04th December 2022

Accepted: 14th December 2022

Online: 15th December 2022

KEY WORDS

Nikoh, oilaviy xayotga tayyorlash, nikoh qurish omillari, nikohga yetuklik, nikoh motivlari, optimal yosh, tarbiyaviy jarayon.

ABSTRACT

Mazkur maqolada yoshlarni oilaviy xayotga tayyorlashning asosiy omillari va muammolari, nikoh qurish omillari to'g'risidagi ma'lumotlar bayon qilingan.

Kirish. Statistik ma'lumotlar O'zbekistonda yil sayin nikohlar soni oshayotganligini ko'rsatmoqda. Masalan, 2017 yilda nikohlar soni 254,2 mingta bo'lgan, 2020 yilda esa 296,1 mingta, ya'ni 16,5 foizga oshgan¹. Bunga sabab, bir tomondan, aholi, birinchi navbatda yoshlarning soni oshganligi, ularda rasman qurilgan oila institutiga nisbatan munosabatning ijobiy tomonga o'zgarganligi bo'lsa, ikkinchi tomondan, jamoatchilik, mahalla faollari, xokimliklarning otalikni belgilash holatlarini kamaytirishga qaratilgan samarali sa'y-harakatlari oqibatidir, deyish mumkin.

Nikoh ajrimlarining sabablari o'rganilganda, aksariyat holatlarda bunga, birinchi navbatda, kelin-kuyovlarning oilaviy hayotga tayyor emasligi, er-xotinlarning o'zaro kelishmovchiliklari,

fe'l-atvorning bir-biriga mos kelmasligi, rashk, kelin bilan qaynona va boshqa yaqin qarindoshlarning chiqishmasliklari, erkakning zararli odatlarga berilib ketishi (ichkilik, giyohvand moddalar iste'mol qilish va shu kabi), moddiy qiyinchiliklar (asosan erning ishlamasligi, oilani mustaqil boshqara olmasligi), qudalarining to'ydan keyin o'zaro kelishmay qolishlari sabab bo'lgan. Bu muammolarga erning boshqa shaharlarga ish qidirib ketib, qaytib kelmaganligi, boshqa bir ayol bilan yangi turmush boshlagani ham qo'shildi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Oila psixologiyasida nikoh quruvchilarning nikoh qurish omillari va shartlari masalasi muhim bo'lib, nikoh qurish omillariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Oilaviy hayotga yetuklik.
2. Oila qurish yoshi.
3. Oila qurish motivlari.
4. Oila qurilgungacha tanish muddati.

¹

<http://stat.uz/ru/index.php/interaktiv/demograficheskie-dannye>



5. Oila qurish shartlari va sharoitlari.

6. Yoshlarning oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari²

Nikohga yetuklik omillari qatoriga yoshlarning oilaviy hayotga ma'naviy yetukligi, ularning oila qurish motivlari, nikoh qurish yoshiga oid fikrlari va bo'lg'usi oilaviy hayotlari haqidagi tasavvurlarini kiritar ekanmiz, bu jihatlarning har biri qanday xususiyatga ega ekanligini ko'rib chiqamiz.

Nikohga yetuklik tushunchasi o'ta murakkab va nisbiy tushunchadir. Chunki odam rivojlanib, takomillashib boruvchi, o'z ma'naviy, axloqiy rivojida muntazam ravishda yangiliklarni o'ziga singdiruvchi mavjudotdir. Kishining yetukligi, ayniqsa, oilaviy hayotga yetukligi masalasida fikr yuritilganda, bu tushunchadan bir shartli o'lchov sifatidagina foydalaniladi. Nikohga yetuklik deyilganda, oila quruvchi yoshlarning jismoniy (fiziologik), jinsiy, huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, psixologik kabi yetuklik jihatlarini farqlash mumkin.

Bularning orasida esa jinsiy, huquqiy yetuklik ko'rsatkichlari aniq alomatlariga ega bo'lsa, iqtisodiy, psixologik, ma'naviy-axloqiy jihatlar qat'iy bir ko'rsatkich bilan belgilanmaydi.

SHaxsning jinsiy yetukligi unda balog'atga o'tish alomatlarining kuzatilishi, ikkilamchi jinsiy belgilarning keskin darajada namoyon bo'lishi bilan, ichki sekretsiya bezlarining faollashuvi bilan xarakterlanadi.

SHaxsning psixologik yetukligi deb esa, uning turli hayotiy vaziyatlar va sharoitlarni hushyor baholay olishida namoyon bo'ladi. Yoshlarda kuzatiladigan

² Oila psixologiyasi. // Шоумаров Ф.Б. тахрири остида. – Т.: 2007. 53 - бет

psixologik yetuklik shaxsning boshqalarga nisbatan bo'lgan ijobiy munosabatlari: hamdardlik, hamfikrlilik, o'zaro yordam kabi-lar tarzida namoyon bo'la oladigan ma'naviy sifatlarini ham bildiradi. Yoshlar oila qurayotganlarida bu xususiyatlar hal qiluvchi bo'lib hisoblanadi³.

Nikoh oldi omillaridan biri – bu nikoh qurish uchun asos bo'lgan nikoh motivlari hisoblanadi. Oila qurilishida bir necha o'nlab nikoh motivlari mavjud. Lekin ularni umumlashtirilgan ravishda uchta toifaga ajratish mumkin:

1. Sevgi tufayli oila qurish.
2. Moddiy yoki o'zga manfaatdorlik asosida oila qurish.
3. Stereotip bo'yicha oila qurish⁴

Muhokama. Oilaning mustahkam bo'lishida oila qurish yoshi muhim hisoblanadi. Kuzatuvlardan ko'rinadiki, nihoyatda erta (16, 17 yoshda) va kech (28, 30 yoshdan keyin) oila qurish maqsadga muvofiq emas. Erta oila qurish yigitning oila boshlig'i sifatida shakllanishiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Qiz bolaning oila yumushlariga erta jalb etilishi natijasida u bekalik, fiziologik jihatdan esa onalik vazifalariga etilgan bo'lishi mumkin. Lekin oilada erkakning yoshi kelinning yoshi bilan baravar bo'lishi, yigitning yoshi ko'rsatkichi oila mustahkamligiga ta'sir etadi. Chunki kelin tomonidan u bola sifatida tasavvur etiladi va kuyovni etarli darajada hurmat qilmasligiga olib kelishi mumkin. Kech oila qurish ham maqsadli emas. Ayniqsa qizlar uchun oila qurish imkoniyatlarini

³ Каримова В.М. Ўзбек ёшларида оила тўғрисидаги ижтимоий тасаввурлар шаклланиши. / Психол. фан. док. дис.: 19.00.05. – Т.: ФарДУ, 1994.

⁴ Oila psixologiyasi. // Шоумаров Ф.Б. тахрири остида. – Т.: 2007. 57 - бет



pasaytiradi. O'ziga turmush o'rtoq tanlashdagi mezonlar soni ortishiga, lekin nomzodlar soni kamayishiga duch keladi. Bu o'z navbatida qiz bola uchun oila qurishni murakkablashtiradi.

SHuning uchun optimal yoshni o'tkazib yubormaslik kerak. Buning uchun ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy yetuklik yoshi tanlansa, ma'qul bo'ladi. Bu esa aksariyat holda qizlar uchun 20 yosh va undan yuqori, yigitlar uchun 24 yosh va undan yuqori bo'lgan davrlarga to'g'ri kelar ekan.

Yoshlarning o'z oilaviy hayotlariga oid tasavvurlari muhim bo'lib, ularning qanchalik reallikka yaqin bo'lishi oilaning mustahkamligiga xizmat qiladi. Afsuski, yoshlarning hamma vaqt ham oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari reallikka mos kelavermaydi, balki aksariyat holda haqiqiy hayotdan tub-dan farq qiladi. SHuning uchun yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ularni imkon qadar hayotda kuzatiladigan past va baland, shirin va achchiq, rohat va tashvish, qorong'u va yorug' tomonlari bo'lishi muqarrarligiga o'rgatib borishimiz va bu tomonlar haqida adekvat (to'g'ri) tasavvurlarni shakllantira olishimiz kerak bo'ladi.

Natija. Psixologik va hayotiy kuzatuvlardan ko'rinadiki, nikohga kiruvchilarning 20 yoshdan kichikroq bo'lishi ularda hayotiy tajriba 20-24 yoshdagilarga qaraganda kamligi, ijtimoiy-iqtisodiy yetuklik darajalarining yetarli emasligi tufayli oilalarda ajralish yoki tushunmaslik, oilada turli darajada nizolarga olib kelishi mumkin ekan.

Ayni vaqtda esa oilada yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash borasida muammolar quyidagilardan iborat:

1. Ota-onalarning oilada yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayonining mohiyati xususida to'la ma'lumotga ega emasliklari.

2. Ota-onalar tomonidan yoshlar, shu jumladan, qizlarni oilada mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash borasidagi nazariy va amaliy bilimlarni o'rganish imkonini beruvchi manbalarning etarli darajada mavjud emasligi.

3. Oila, shuningdek, ota-onalarga ijtimoiy tashkilotlar, ta'lim muassasalari hamda muayyan mutaxassislik yo'nalishlarida faoliyat yurituvchi idoralar tomonidan ko'rsatilayotgan nazariy va amaliy yordamning ijtimoiy ehtiyojlarga nisbatan proporsional emasligi.

4. Ommaviy axborot vositalari orqali oila mohiyati, oilaviy hayotni tashkil etish, farzandlar tarbiyasini muvaffaqiyatli olib borish, oilaviy munosabatlar mazmuni, shuningdek, oilaviy nizo va ajrimlarni keltirib chiqarayotgan sabablar va ularni bartaraf etish chora tadbirlari xususida namoyish (yoki chop) etilayotgan ko'rsatuv, eshittirish yoki chiqishlar saviyasining yuqori emasligi.

Xulosa. Yuqorida qayd etilgan muammolarning ijobiy yechimini quyidagi faoliyatlarni yo'lga qo'yish orqali ta'minlash mumkin bo'ladi:

Ota-onalar o'rtasida oila sharoitida yoshlar, shu jumladan, qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash muammosining nazariy va amaliy jihatlarini to'laqonli yoritib berishga xizmat qiluvchi targ'ibot va tashviqot ishlarini samarali, tizimli va uzluksiz tarzda yo'lga qo'yish lozim.

Ota-onalarda oila sharoitida yoshlar, shu jumladan, qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash ularning porloq kelajagi va baxtli hayotlarini kafolatlovchi omil ekanligi to'g'risidagi tushunchani hosil



qilish, bu boradagi nazariy va amaliy bilimlarni chuqur egallashga bo'lgan ichki ehtiyoj va rag'batni shakllantirish tadqiqot muammosining ijobiy echimini ta'minlashga yordam beradi.

Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ularga to'g'ri tarbiyaviy jarayoni tashkil etish lozim. Bunda ularga nikoh va oilani shakllantiruvchi asoslar, nikoh va oila qurish shartlari, oilaviy munosabatlar mazmuni, oila mustahkamligini ta'minlovchi hamda oilada sog'lom psixologik muhitni yuzaga keltiruvchi omillar, shaxsiy gigiena qoidalariga amal qilish, shaxsiy, shuningdek, oilaning boshqa a'zolari salomatligini saqlash, oila byudjetini shakllantirish, undan oqilona foydalanish, oila muhitida farzandlar tarbiyasini tashkil etish, uy ro'zg'or yumushlari va oila xo'jaligini boshqarish, er-xotin munosabatlari, ota-ona va bolalarning burchlari kabi mavzularda suhbatlar olib borish zarurdir. SHundagina qizlarda oila xususida ma'lumotlar paydo bo'ladi.

Oilaviy hayotga qizlarni tarbiyalashda "Qizlar tarbiyasining o'ziga xos xususiyatlari", "Ginekologik kasalliklarni keltirib chiqaruvchi omillar", "Qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida jamoatchilikning ishtiroki" kabi mavzularda davra suhbatlari, baxs-munozaralar tashkil etish ham ahmiyatga ega.

Bugungi kun qizlar o'rtasida o'tkazilayotgan "Qizlar davrasi", "Eng namunali kelin", "Ibratli oila", "Tadbirkor ayol" kabi mavzularda tashkil etilayotgan ko'rik (tanlov)lar, seminar-treninglarga alohida e'tibor berilmoqda, chunki aynan tadbirlarda qatnashish jarayonida qizlarda oilaviy hayot ko'nikma va malakalari hosil bo'ladi. Zero, yangi hayot ostasida turgan qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda oila, butun jamoatchilik e'tibori, ma'suliyatli yondashuvi zarurligini unutmagan holda faoliyatni samarali tashkil qilish lozimdir. SHundagina sog'lom va mustahkam oilalar jamiyatimizning faol bo'g'iniga aylanadilar.

References:

1. Alimova G., Akramova F. Erta nikoh oqibatlari (mahalla maslahatchilari, amaliyotchi psixologlar uchun qo'llanma). – T., 2014. –23-b.
2. Davletshin M.G., SHoumarov G'.B. Zamonaviy o'zbek oilasi va uning psixologik xususiyatlari. // «O'zbek oilasining etnopsixologik muammolari» Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma'ruzalari qisqacha bayoni. – T., 1993. 3-7-b.
3. Oila psixologiyasi. // SHoumarov G'.B. tahriri ostida. – T.: 2000. -272-b.
4. Saifnazarova F. O'zbek oilasi: ijtimoiy va ma'naviy qadriyatlar. Monografiya. – T.: «Yurist-media markazi», 2007. –128-b.